

# Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2023-yil 24-avgust, payshanba, 101 (23.822)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz


**KUN HIKMATI**

Pulni isrof qilish qashshoqlikka, so'zni isrof qilish ahmoqlikka, vaqtni isrof qilish nodonlikka olib keladi

## YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

# FALASTIN IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI BILAN HAMKORLIK QILADI



**Falastin tashqi ishlar va muhojirlar vaziri Riyod al-Malki boshchiligidagi delegatsiya Samarqandda bo'ldi.**

Samarqand temir yo'l vokzalida mehmonlarni viloyat hokimining o'rinbosari R.Qobilov kutib oldi.

Delegatsiya a'zolari Samarqand shahridagi muqaddas qadamjolar, tarixiy-madaniy yodgorliklarni ziyorat qildi hamda "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazida bo'ldi.

Tashrif davomida mehmonlar Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyati bilan ham tanishdi. Markaz direktori Shovosil Ziyodov muassasaning yaratilish tarixi, binoning me'moriy yechimlari, bugungi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlari hamda erishilgan natijalar haqida ma'lumot berdi.

Muloqot chog'ida Riyod al-Malki 2016-yilda davlatimiz rahbari tomonidan mazkur markazni tashkil etish to'g'risida tashabbus ilgari surilgan Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasida ishtirok etganini yodga oldi.

- Qisqa fursatda ushbu tashabbusning amaldagi in'ikosi sifatida barpo etilgan ko'rkam va muhtasham markaz musulmon dunyosi buyuk mutafakkirlarining boy merosini chuqur o'rganib, keng targ'ib qilish, yosh avlodni islom dinining asl qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi, - dedi Riyod al-Malki. - Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi bilan Falastindagi ilmiy muassasalar o'rtasida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish bo'yicha barcha imkoniyatlarni ishga solamiz.



# JAHONNING ENG ZO'R MILLIY LIBOSI

## Samarqandga topshirildi



"Eng zo'r milliy libos", "Dunyo go'zali", "Koinot go'zali" va "Yer go'zali" tanlovlari xalqaro jamoatchilik o'rtasida katta nufuzga ega. "Eng zo'r milliy libos" xalqaro tanlovi 1960-yilda tashkil etilgan bo'lib, 2022-yil 13-dekabr kuni Yaponiyaning Tokio shahrida ushbu tanlov oltmishinchi marta o'tkazildi va unda o'zbekistonliklar ilk bor qatnashdi.

Dunyoning 66 nafar go'zali bellashgan "Miss International" tanlovida yurtimiz vakili Nigina Faxriddinova paranji libosida ishtirok etib, "Eng yaxshi milliy libos" mukofotini qo'lga kiritgan edi. Mazkur libosning "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga tuhfa qilinishi munosabati bilan taqdimot marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda viloyat turizm boshqarmasi mutasaddilari, Samarqand shahridagi Turkiya Respublikasining bosh konsulxonasi mas'ullari va universitet o'qituvchilari ishtirok etdi.

- Mazkur libos nafaqat o'zbek ayolining milliy kiyimi, balki turk dunyosiga oid milliy durdona asarlardan biri, - deydi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti birinchi prorektori professor Jo'liboy Eltazarov. - Universitetimizda turk dunyosiga oid milliy liboslar galereyasi bo'lib, ushbu libos ham ular qatoridan joy oldi.

- Paranji o'zbek ayolining milliy liboslaridan biri, - deydi "Eng zo'r milliy libos" xalqaro tanlovi g'olibi Nigina Faxriddinova. - Buni amalda isbotlash va ommaga taqdim qilish uchun libosni yaratish g'oyasi ustida 3 oy ishladim va dizayner Baxtinur Husanov hamkorligida milliy naqshlar bilan bezatdik. Ushbu xalqaro tanlovda ilk bor ishtirok etgan bo'lsak-da, milliy kiyimlarimiz dunyo modelerlari e'tiboriga tushdi va e'tirof etildi.

**F.FAXRIDDINOV.**

# Kinokarvon yo'lga chiqdi

**Shu yilning 15-sentabriga qadar O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan respublikamiz bo'ylab "Yangi O'zbekistonning yangi kinolari" oyligi doirasida kinokarvon aksiyasi o'tkazilyapti.**

Ushbu tadbirlar doirasida poytaxtdan kelgan bir guruh san'atkorlar ishtirokida Samarqand shahridagi bir qator maskanlar, xususan, markaziy harbiy okrugning madaniyat va ma'rifat markazida "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari bilan ijodiy uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda O'zbekiston xalq artisti Tesha Mo'minov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Anvar Azimov, Egamberdi Rahimov, aktrisalar Vazira Yunusova, Mukarram Bekmurodova, Anjelika Eshenbetova, aktyorlar Dilshodbek Kattabekov va Akbarali Mavlonovlar kino muxlislariga o'zbek milliy kino san'atidan o'rin olgan vatanparvarlik ruhidagi eng sara asarlar, ularning yaratilish tarixi, tasvirga olish jarayonlari va mazmun-mohiyati haqida so'zlab berdi. Shuningdek, har bir san'atkor o'zi ijro etgan kinofilm va spektallardan parcha ijro etdi.

- Kino san'ati yoshlar qalbida vatanparvarlik hisini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega, - deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Egamberdi Rahimov. – Bu o'rinda kinokarvon aksiyasi doirasida o'tkazilayotgan ijodiy uchrashuvlar juda muhim. O'ylaymanki, bunday tadbirlar davomiy bo'ladi va biz, san'atkorlarni xalqimizga yanada yaqinlashtiradi.

Tadbir so'ngida "Sudya" nomli badiiy film namoyish etildi.

Shuningdek, ijodiy guruh "Saxovat uyi"da bo'lib, bemorlar holidan xabar oldi, o'z ijod namunalaridan namoyish etib, ularga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

**O'z muxbirimiz.**

**MUSTAQILLIK 32 YIL**

## QURILISH-BUNYODKORLIK ISHLARI

(tegishli yillarning amaldagi narxlarida)

**1991-yil**da – **0,3 milliard** so'm

**2022-yil** yakuni bilan – **8,2 trillion** so'm

**Xizmatlar sohasi nafaqat viloyatimiz, balki respublikamizda ham iqtisodiyotning drayverlaridan hisoblanadi. Soha rivoji, avvalo, turizmning kengayishi bilan bog'liq. Birgina umumiy ovqatlanish yo'nalishida mehmonga sifatli xizmat ko'rsatish bilan birga milliy qadriyatlarimiz va milliy taomlarimiz bilan tanitish imkoniyati yaratiladi. El farovonligi, aholining turmush darajasi ko'pincha ovqatlanish madaniyati va taom turlari bilan belgilanadi. Shu bois ko'p yildan buyon ota kasbimizni ardoqlab, oilamiz bilan umumiy ovqatlanish sohasida mehnat qilamiz.**

# OTA KASBINI TARMOQ KLASTERIGA AYLANTIRDIK



Bu sohada ancha yillik tajribamdan kuzatdimki, bizda aynan umumiy ovqatlanish bo'yicha alohida bilimga, malakaga ega bo'lgan mutaxassislar yetishmas ekan. Shu sababli 2014-yilda "Shashlik uz" xususiy korxonamizni tashkil etdim. Korxonada dastlab ishchilarga soha sirlarini, xorijlik mehmonlar bilan ishlash ko'nikmalarini o'rgatdik. Negaki, xizmat ko'rsatuvchi taomni keltirib beruvchigina emas, uning harakatlari sayyohda odamlarimiz haqida dastlabki xulosani chiqarishga xizmat qiladi.

Keyinchalik o'z o'quv markazimizni ochdik. Markazda shu sohada biroz bo'lsa-da, tajribasi borlar bir oy, umuman tajribasi yo'qlar esa uch oy davomida ofitsiant, barmen, qandolatchilik, restoran yuritish ishi bo'yicha qayta o'qitishni yo'lga qo'ydik. Bitiruvchilarga davlat ro'yxatidan o'tgan sertifikat topshiramiz va ularni ish bilan ta'minlaymiz. Qolaversa, ularni Ufa, Koreya, Malayziya va boshqa davlatlarga ishga yuborishni yo'lga qo'ydik. Lekin mutaxassis ishga borayotgan davlati tilini bilmasa, u har qancha malakali bo'lsa ham qiyinchilikka uchrashi mumkin. Shu bois bu yildan markazning o'zida ingliz, koreys tillarini o'qitishni boshladik. Oddiy qilib aytganda, umumiy ovqatlanish klasterini tashkil etdik.

Hozirda korxonamiz tasarrufida o'quv markazi va 10 ta restoranda 500 dan ortiq ishchi mehnat qilmoqda. Endi faoliyatni yanada kengaytirib, boshqa viloyatlarda ham servisni rivojlantirishga hissa qo'shmoqchimiz. Qolaversa, respublikamizda agro, eko turizmni rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqyapmiz. Bundan tashqari, chorvachilik xo'jaligi tashkil qilib, go'shtli yarim tayyor mahsulotlar tayyorlab, eksportga yo'naltirish harakatidamiz.

**Ahmad SALOYEV,**
**"Faol tadbirkor" ko'krak nishoni sohibi.**

**Mamlakatimizning kelgusi yetti yildagi asosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni va "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli hamda o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihalari regulation.gov.uz va 2030.strategy.uz portallarida keng jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirildi.**

# jamoatchilik.uz sizning takliflaringizni kutmoqda

Viloyat hokimligida "Yuksalish" umummilliy harakati viloyat hududiy bo'linmasi tashabbusi bilan hududiy Kengash deputatlari, boshqarma va tashkilotlar vakillari, tadbirkorlar, matbuot va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida mazkur loyiha muhokama qilindi.

Tadbirda ushbu Strategiyani amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyati, ayniqsa, mas'ul idoralar tomonidan yuklatilgan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi, takliflar bildirishi yuzasidan jamoatchilik monitoringi, nazorati kabi tadbirlarni tashkil etish zarurligi aytildi.

**Nodir QUDRATOV.**

# Xitoydan yangi avtobuslar olib kelindi

**Samarqand shahrida turistik yo'nalishda faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Azim Travel service" hamda "CATO E MOTORS" mas'uliyati cheklangan jamiyatlari tomonidan sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi 6 ta "ASIASTAR" rusumli avtobus olib kelindi.**

Korxona rahbariyati ma'lumotlariga ko'ra, avtobuslar o'z mablag'lari hamda kredit hisobiga Xitoy Xalq Respublikasining "Yangzhou Yaxing Motor Coach Co. LTD" korxonasidan xarid qilingan.

Avtobuslarning beshtasi 60 nafar yo'lovchiga mo'ljallangan. Qolgan bittasi 35 nafar yo'lovchi sig'imiga ega. Sayyohlik sohasida xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan ushbu transport vositalari barcha zamonaviy talablar asosida jihozlangan.

## BUGUN

**TOSHKENTDA:** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq to'rtinchi yalpi majlisi o'z ishini boshlaydi.

**SAMARQANDDA:** Samarqandliklar va yurtimiz mehmonlari uchun O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida "Yer yuzining sayqali" nomli ko'rgazma ochiladi.

**Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar oziq-ovqat yetishtirish borasida olib borayotgan samarali faoliyatga qaramasdan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘sishi aholi soni o‘sishidan orqada qolmoqda, bu esa qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun yetarli sharoit mavjud bo‘lmagan mamlakatlarda muammo tobora chuqurlashib borayotganini ko‘rsatmoqda.**

# OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

## MOHIYATI NIMADA?

Yer yuzida aholi sonining o‘sishi, iqtisodiy tangliklar, global iqlim sharoitining o‘zgarishi va boshqa omillar sababli insoniyatning oziq-ovqat mahsulotlariga talabini qondirish tobora qiyinlashmoqda.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti hamda Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi vaqtda dunyoda 840 milliondan ortiq kishi, ya’ni deyarli har 8 odamning biri to‘yib ovqatlanmayapti.



Eng so‘nggi tadqiqotlar esa sayyora aholisining 30 foizidan ziyodi to‘yib ovqatlanmaslik oqibatida eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosidan aziyat chekayotganligini, 52 mamlakatda ochlikning «jiddiy», «xavotirli» va «favqulodda jiddiy» darajalari qayd etilganini ko‘rsatmoqda. Buning oqibatida dunyodagi 160 milliondan ortiq bolada bo‘y o‘sishi, jismoniy va intellektual rivojlanish bilan bog‘liq jiddiy kamchiliklar kuzatilmoqda. Keyingi uch yilda esa ushbu ko‘rsatkichlarning salbiy tomonga o‘zgarayotgani qayd etilmoqda. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida juda katta yutuqlar qo‘lga kiritildi, jumladan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmi ikki barobar ortdi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini barqaror rivojlantirish, fuqarolarning sog‘lig‘i va hayotini yaxshilash, mamlakat mustaqilligini barqaror saqlashning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Mazkur yo‘nalishda respublikamizda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha strategik jihatdan maqsadli hamda izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda yiliga 20 million tonnadan ortiq meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiriladi. So‘nggi yillarda 800 ming tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash sig‘imlariga ega bo‘lindi. Biroq bu ehtiyojimizga kamlik qiladi. Agar ishlab chiqargan mahsulotlarni saqlash kamida 10 foizga yetkazilsa, xalqimizni yil davomida bir maromdagi narxlarbop oziq-ovqat bilan ta’minlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini hal etishda bir qator qiyinchiliklar mavjudligiga qaramay, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini ham miqdor, ham sifat jihatdan muntazam oshirib borish va shu orqali oziq-ovqat ta’minotini mustahkamlash borasida salmoqli natijalar qo‘lga kiritilmoqda.

Xususan, 2023-yilda belgilangan ko‘rsatkichlarga erishish maqsadida 4 million gektar (+358 ming gektar), shundan 2,5 million gektar asosiy, 214 ming gektar bog‘-tok qator orasi, 424 ming gektar lalmi va 903 ming gektar takroriy maydonlarda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish belgilangan.

Mazkur maydonlardan 8,1 million tonna boshoqli don, 528 ming tonna sholi, 579 ming tonna dukkakli, 345 ming tonna moyli o‘simliklar, 12,2 million tonna sabzavot, 2,5 million tonna poliz, 4,1 million tonna kartoshka, 3,1 million tonna meva va 2 million tonna uzum yetishtirilishi prognoz qilindi.

Shuningdek, hududlarda dala chetlariga 71 ming fermer xo‘jaliklari tomonidan jami 59 ming gektar, shundan 35 ming gektarga 121 million dona tut, tok, terak, mevali ko‘chatlar hamda 24 ming gektar poliz, sabzavot va boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish ishlari yakunlandi.

Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlar natijasida yil yakuniga qadar qoramollar soni 14,4 million boshga, qo‘y-echkilar 24,3 million boshga yetkazilib, 2,9 million tonna go‘sht (tirik vaznda), 12,2 million tonna sut, 9 milliard dona tuxum, 650 ming tonna baliq va 31 ming tonna asal ishlab chiqarish prognoz qilingan.

Joriy yilning yanvar-may oylarida qoramollar soni 13,5 million boshga, qo‘y-echkilar 23,2 million boshga (103 foiz) va parrandalar bosh soni 89 million boshga (102,6 foiz) yetkazildi, 946 ming tonna (104,1 foiz) go‘sht (tirik vaznda), 3,7 million tonna (104 foiz) sut, 20 ming tonna baliq va 2,4 milliard dona (104 foiz) tuxum yetishtirildi.

Oziq-ovqat sanoati bo‘yicha: respublikada oziq-ovqat sanoatida 22 mingdan ortiq turli mulkchilik shaklidagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Mazkur korxonalar bilan 2023-yilda jami 75,5 trillion so‘mlik (o‘tgan yilga nisbatan 116,2 foiz) oziq-ovqat sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish belgilab olindi.

Joriy yil yanvar-may oylarida qiymati 10 milliard so‘m, quvvati 1,5 ming tonna bo‘lgan 1 ta zamonaviy agrologistika markazi foydalanishga topshirildi. Qiymati 23,9 milliard so‘m, quvvati 14,5 ming tonna bo‘lgan 22 ta sovutkichli omborxonalar foydalanishga topshirildi.

Natijada agrologistika markazlari soni 67 taga, quvvatlar 901 ming tonnaga yetkazildi, shuningdek, sovutkichli omborxonalar soni 1820 taga va quvvatlari 1 million 196 ming tonnaga yetkazildi.

Yil yakuniga qadar quvvati 63 ming tonna bo‘lgan 9 ta loyiha amalga oshirilib, agrologistika markazlari soni jami 76 taga va quvvati 964 ming tonnaga yetkaziladi. Jami quvvati 11,2 ming tonna bo‘lgan 19 ta loyiha amalga oshirilib, sovutkichli omborxonalar soni jami 1839 taga va quvvati 1210 ming tonnaga yetkaziladi.

Mamlakatimiz o‘zining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bilan birga, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish orqali xorijiy davlatlarning oziq-ovqat ta’minotiga munosib hissa qo‘shayotgani xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda. Jumladan, BMT “Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)”ning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sohasida “Ming yillik rivojlanish maqsadlari”ga erishgani uchun maxsus mukofotiga sazovor bo‘lgan dunyodagi 14 ta davlatning biri sifatida mamlakatimizning e’tirof etilgani bu boradagi islohotlarga berilgan munosib baho bo‘ldi.

Xalqaro oziq-ovqat siyosati ilmiy-tadqiqot instituti hisobotlarida ham yurtimizda keyingi yillarda bu borada e’tirofga sazovor ishlar amalga oshirilayotgani qayd etildi. Oziq-ovqat xavfsizligi masalasida so‘z borganda, oziq-ovqat bozori barqarorligiga tahdidlarni o‘z vaqtida bartaraf etish, oziq-ovqat tovarlari importini qulay bojxona-tarif tartibiga solish bo‘yicha choralarni belgilash maqsadida ishlab chiqilgan «2019-2024-yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash Milliy dasturi» ham aynan shu maqsadlarga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Mazkur yo‘nalishda respublikamizda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha strategik jihatdan maqsadli hamda izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sohasida ayrim muammolar saqlanib qolmoqda.

Muammolarni bartaraf etish hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasini oshirish, aholining faol va sog‘lom hayoti uchun zarur bo‘lgan yetarli miqdordagi xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari uchun jismoniy va iqtisodiy imkoniyatiga ega bo‘lishi, mahsulotlarning sifatini yaxshilash, narxlar barqarorligini ta’minlash bo‘yicha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- respublikaning barcha hududlari darajasida belgilangan maqsadli mezonlarni bajarishni ta’minlovchi agrosanoat majmuasini barqaror rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashni tartibga solish va boshqarish tizimini joriy qilish;
- oziq-ovqat xavfsizligini aniqlash, baholash va kutilishi mumkin bo‘lgan xavfni oldindan bilish tizimini joriy qilish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga yo‘naltirilgan korxonalar tarmog‘ini kengaytirish;
- meva-sabzavot mahsulotlarini saqlashga ixtisoslashgan sovutish kameralari, ularni saralash va qadoqlash punktlari hamda tashish bilan shug‘ullanuvchi maxsus transport-kommunikatsiya tarmog‘ini kengaytirish;
- qayta ishlash sanoatining material va energiya sig‘imini pasaytirish, resurs tejovchi kam chiqimli texnologiyalarga ustuvorlik berish;
- asosiy turdagi qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlari, xomashyoni ichki ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish;
- chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik sohasini barqaror rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish, ozuqa bazasini mustahkamlash;
- qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash;
- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlash;
- aholining barcha qatlamlari oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanishi uchun iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish;
- meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va bir vaqtning o‘zida qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi ishlab chiqarish majmualari, xoldinglar, klasterlar va ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari faoliyatini kengaytirish;
- qishloq joylarda meva-sabzavot va uzumni qayta ishlovchi korxonalar uchun zarur bo‘lgan infratuzilmalar, birinchi navbatda, yo‘llar, gaz, elektr va suv ta’minoti hamda boshqa injenerlik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan uzluksiz ta’minlashni yo‘lga qo‘yish va boshqalar.

Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligiga erishish qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati va savdo tarmog‘ida strategiya va dasturlarning ijrosiga bog‘liqligini hisobga olgan holda soha va tarmoqlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish lozim.

**R.SIDDIQOV,**
**Oliy Majlis Senati Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi raisining o‘rinbosari.**

# QO‘SHRABOTDA OLTIARIQ TAJRIBASI ASOSIDA UZUM YETISHTIRILADI



Prezidentimiz 27-28-iyul kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi chog‘ida Oltiariq tumanidagi “Xayrullo Bahrom Boymatov” fermer xo‘jaligi tomonidan tashkil etilgan uzumchilik plantatsiyasida bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda iqlimi uzumchilikka mos tumanlarda ham Oltiariq tajribasini joriy qilish, tokzorlarni ko‘paytirish bo‘yicha ko‘rsatma bergan edi. Mazkur topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu fermer xo‘jaligida hududlardagi soha rahbarlari, ularning o‘rinbosarlari va tadbirkorlar ishtirokida ko‘rgazmali seminar tashkil etildi.



Seminarda qatnashgan Qo‘shrabot tumani hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Obidjon Rahmonov tumanda uzum yetishtirishda Oltiariq tajribasini qo‘llash, umuman, uzumchilik sohasida rejalashtirilayotgan ishlar haqida ma’lumot berdi.

- Oltiariq tumanida asosan eksportbop xo‘raki uzum yetishtirish voyish usulida tashkil etilgan, - deydi O.Rahmonov. – Sababi, yer osti sizot suvlari juda yaqin. Bizda esa suvli maydonlar kamligi sababli mayizbop qora kishmish yertokda parvarishlanadi. Tumandagi 7900 gektardan ortiq uzumzorda har yili o‘rtacha 60 ming tonna uzum va 16 ming tonna mayiz yetishtirilmoqda.

Tumanimizda uzumchilikni yanada rivojlantirish maqsadida Oltiariq tajribasi asosida 2023-2026-yillarda 1600 gektar yerda uzum yetishtirishni rejalashtirib oldik. Belgilangan fermer xo‘jaliklarida yerlarni tayyorlash, zamonaviy texnologiyalar asosida tomchilatib sug‘orish qurilmalarini o‘rnatish ishlari boshlab yuborildi. Yil yakuniga qadar 300 gektar maydonda eksportbop uzum yetishtirish yo‘lga qo‘yiladi.

Kelgusi uch yilda tumanning olti hududdagi 124 fermer xo‘jaligida uzumzorlar tashkil etilib, 1600 dan ziyod ish o‘rni yaratiladi va qo‘shimcha 24 ming tonna uzum mahsulotlari yetishtiriladi. Shuningdek, kishmishbop uzum navlarining “Qo‘shrabot brendi” yaratilib, logistika markazlari tashkil qilindi. Uzumni qayta ishlash natijasida quritilgan mayiz eksporti oshishiga erishiladi.

**Fazliddin RO‘ZIBOYEV.**

**O‘tgan yil 26-dekabr kuni davlatimiz rahbarining “Mahalla budjeti” tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan edi. Mazkur qarorga asosan, joriy yil 1-yanvardan har bir mahalla o‘zining muammosini hal etish uchun soliqlarni undirish ko‘rsatkichi past bo‘lgan tumanlarda “Mahalla budjeti” tizimi huquqiy eksperiment tariqasida joriy etildi.**

# SOLIQni MAHALLAGA TO‘LAYSIZ

## 10 foizi hududning o‘ziga qaytadi

Ushbu tajriba amaliyotga joriy etilganiga yarim yildan ko‘proq vaqt o‘tdi. Tajriba uchun viloyatimizdan Urgut tumani tanlangan edi. Xo‘sh, loyiha doirasida bugungacha bo‘lgan natijalar qanday?

Tuman davlat soliq inspeksiyasi bergan ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu amaliyot sohada kutilgan ijobiy natijani bermoqda.

- Natijaning ijobiyligi dastlab raqamlarda aks etyapti, - deydi tuman soliq inspeksiyasi hisobni yuritish va budjet daromadlarini prognozlashtirish bo‘limi boshlig‘i Feruz Baxronov. – Bu tajriba amaliyotga joriy etilganidan keyingi davrda aholining mol-mulk va yer solig‘i tushumlari bir baravarga oshganidan ham ko‘rinib turibdi. Xususan, tumanning yarim yillik soliq tushumlari o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 197 foizga bajarildi. Tumandagi mavjud 120 ta mahallaning barchasida soliq tushumida o‘sish kuzatildi. Buni istalgan biror mahalla misolida ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “O‘zbekiston” mahalla fuqarolar yig‘inida o‘tgan yilning olti oyida soliq tushumlari 56 million so‘mdan ortiqroqni tashkil qilgan bo‘lsa, joriy yilning shu davrida 152 million so‘mga yetdi. Ya’ni, soliq tushumi o‘tgan yilga nisbatan 268 foizga bajarildi. Bugungacha tumanning Andak, Bekravot, Bunyodkor, Ipak yo‘li kabi mahallalari soliq tushumlarida yuqori natijalar ko‘rsatyapti. Ayrim chekka hududlardagi mahallalar ko‘rsatkichlarining bugungacha past ekanligi esa aholining mavsumiy daromadiga, ya’ni kuzgi qishloq xo‘jalik mahsulotlari yig‘im-terimi bilan bog‘liq. Ammo umumiy ko‘rsatkich o‘tgan yillarga nisbatan oldinga butunlay yaxshi tomonga o‘zgargan. Tuman miqyosida o‘tgan yilning olti oyida 6 milliard 480 million so‘m soliq tushumlari undirilgan bo‘lsa, joriy yilning mos davrida bu 6 milliard 500 million so‘mga ortib, 12 milliard 767 million so‘mni tashkil etmoqda.

Tumandagi “O‘zbekiston” mahalla fuqarolar yig‘inida bugungi kunda 840 ta xonadonda 6200 nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi. Ushbu amaliyot joriy qilinganidan so‘ng mahallada soliq tushumi ko‘rsatkichlari keskin o‘zgardi.

- Soliq tushumining 10 foizi mahallaning o‘zida qoldirilishi bilan muhim bo‘ldi, - deydi mahalla oqsoqoli G‘iyos Axtamov. – Joylarda aholiga tushuntirish ishlarini olib boryapmiz. Joriy yil tashabbusli budjetda ishtirok etib, mahallamizning 2,5 kilometrlik ichki yo‘llarini asfalt qildik. Bu kabi o‘zgarishlar odamlarda ishonch uyg‘otdi va ular soliqlarni ham o‘z vaqtida to‘lashga harakat qilyapti. Yaqinda mahallamiza soliq tushumlaridan 15 million so‘m mablag‘ tushirib berildi. Bu mablag‘ni mahalla faollari bilan bamaslahat sarflashga kelishib oldik. Qishloq qabristoni atrofidagi ichki yo‘llarga shag‘al yotqizishni rejalashtiryapmiz.



Mahalla raislari uchun “Soliq.uz” mobil ilovasining “Mening mahallam” bo‘limi orqali hududlaridagi soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lashi lozim bo‘lgan mol-mulk va yer soliqlarini real vaqt rejimida aniqlash imkoniyati yaratilgan. Har bir mahalla fuqarolar yig‘ini raisi soliq yig‘ishning aqlli tizimi o‘rnatilgan elektron qurilmalar bilan ta’minlangan.

- Soliq to‘lash uchun tuman markaziga borish, navbat kutish, hujjat ishlari uchun turli tashkilotlarda eshikma-eshik yurish zamoni o‘tdi, - deydi shu kuni yer solig‘ini to‘lash maqsadida mahalla markaziga kelgan Faxriddin Eshonqulov. – Soliq to‘lovchi har qanday kishi gapimni tasdiqlashi mumkin, ham vaqtingiz tejaladi, ham naqdingiz, bu aholi uchun katta yengillik bo‘ldi.

Ushbu amaliyotdan asosiy maqsad mahallaning mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning ma’lum qismini mahallaning o‘zida qoldirgan holda bundan shu hududda yashovchilarni manfaatdor qilishdir. Har oyda soliq tushumlarining 10 foizi keyingi oyning 10-sanasiga qadar tuman budjeti orqali tegishli jamg‘armalarga yo‘naltiriladi. Keyingi bosqichda tizim asosida shakllantirilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilishi taklif etilayotgan va amalga oshirilgan tadbirlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar “Ochiq budjet” axborot portaliga joylashtirib boriladi.

- Mahalla budjeti tizimi asosida shakllantirilgan mablag‘lar “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunda nazarda tutilgan fuqarolar yig‘ini kengashi tomonidan boshqariladi, - deydi tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i Akbar Almasov. - Ushbu loyiha amaliyotga to‘liq tatbiq etilgach, har yili 1-fevralga qadar mahalla raisi va hokim yordamchilari bilan birga mahalla budjeti hisobidan hal qilinadigan loyihalar ro‘yxatini tuman Kengashlariga tasdiqlash uchun kiritish belgilangan. Mahalla budjeti tizimini joriy etish orqali uning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish rejalashtirilgan. Joriy etilgan tizim mahallabay ishlashni yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag‘allikni qisqartirish, davlat xizmatlari va manzilli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalarining bevosita mahalla darajasiga tushirilishini ta’minlab, hududning o‘zida ko‘plab muammolarni hal etish, jumladan, mahalla infratuzilmasini yaxshilash, obodonlashtirish, moddiy yordam, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kutubxonalar, sport maydonchalari qurish kabi masalalarni hal qilishga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir mahallaning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda qo‘shimcha manbalarni izlash va ularning daromadlari bazasini kengaytirish orqali mahallalardagi mavjud muammolarni bartaraf etishda ushbu huquqiy tajriba Urgut tumanida ijobiy natija beryapti.

